

**O‘RTA OSIYO SHAHARLARINING VUJUDGA KELISHI TARIXI
(ENEOLIT DAVRI MISOLIDA)**

Qalandarova Maftuna Turaboyevna

Osiyo Xalqaro Universiteti

MM101-T-25 1 - kurs magistranti

Annotatsiya: Maqolada Janubiy Turkmaniston eneolit davri jamoalarining moddiy madaniyati Namozgoh yodgorligining quyi uch madaniy qatlami (Namozgoh I–III) asosida yoritilgan. Ushbu bosqichlarning xronologiyasi, turar-joy qurilishi, mudofaa inshootlari va xo‘jalik faoliyati tahlil qilinadi. Shuningdek, Sarazm yodgorligining qurilish taraqqiyoti bosqichlari orqali eneolit davrida mintaqaviy madaniy aloqalar va me‘moriy an‘analarning shakllanishi ko‘rsatib beriladi.

Shuningdek, shaharlarning shakllanish tarixini chuqur ilmiy tadqiq qilgan arxeolog olimlarning olib borgan ilmiy tadqiqotlari natijalari va erishgan yutuqlari haqida ma‘lumotlar beriladi.

Kalit so‘zlar: Namozgoh madaniyati, eneolit davri, moddiy madaniyat, Sarazm yodgorligi, turar-joy me‘morchiligi.

**ИСТОРИЯ ВОЗНИКНОВЕНИЯ ГОРОДОВ СРЕДНЕЙ АЗИИ (НА
ПРИМЕРЕ ЭНЕОЛИТИЧЕСКОГО ПЕРИОДА)**

Аннотация: В статье рассматривается материальная культура энеолитических общин Южного Туркменистана на основе нижних трёх культурных слоёв памятника Намазгах (Намазгах I–III). Анализируются хронология данных этапов, особенности жилищного строительства, оборонительных сооружений и хозяйственной деятельности. Также на примере этапов строительного развития памятника Саразм показан процесс формирования региональных культурных связей и архитектурных традиций в энеолитический период. Кроме того, в статье представлены сведения о результатах научных исследований и достижениях археологов, глубоко изучавших историю формирования городов.

Ключевые слова: культура Намазгах, энеолитический период, материальная культура, памятник Саразм, жилищная архитектура.

**THE HISTORY OF THE EMERGENCE OF CITIES IN CENTRAL ASIA (ON
THE EXAMPLE OF THE ENEOLITHIC PERIOD)**

Abstract: The article examines the material culture of eneolithic communities in Southern Turkmenistan based on the lower three cultural layers of the Namazgah site (Namazgah I–III). The chronology of these stages, residential architecture, defensive structures, and economic activities are analyzed. In addition, the stages of architectural

development of the Sarazm site illustrate the formation of regional cultural connections and architectural traditions during the eneolithic period. The article also presents information on the results and achievements of archaeological scholars who conducted in-depth scientific research on the history of urban formation.

Keywords: *Namazgah culture, Eneolithic period, material culture, Sarazm site, residential architecture.*

KIRISH

Eneolit davri insoniyat tarixidagi o'tish davrini ifodalaydi. Bu davr tosh davrining oxiri va metall davrining boshlanishi o'rtasidagi davr bo'lib, odatda mis- tosh davri deb ham ataladi. O'rta Osiyoda eneolit davri miloddan avvalgi IV- III mingyilliklarga to'g'ri keladi. Bu davrda odamlar mehnat qurollarini tayyorlashda misdan foydalanishni boshladilar, ammo tosh ashyolarning roli hamon katta edi. Eneolit davrida dehqonchilik, chorvachilik va hunarmandchilikning ilk ko'rinishlari shakllandi. O'rta Osiyoning turli hududlarida, xususan, Janubiy Turkmaniston, Buxoro vodiysi, Zarafshon vodiysi, Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarida eneolit davriga oid manzilgohlari topilgan. Arxeologik topilmalardan bu davrdagi odamlarning ijtimoiy hayoti, diniy e'tiqodlari va iqtisodiy faoliyati murakkablashganligini ko'rishimiz mumkin [1].

METODOLOGIYA

Tadqiqot metodologiyasi tarixiy-qiyyosiy tahlil, tizimli yondashuv va arxeologik tadqiqot usullariga asoslangan. Tadqiqot jarayonida O'rta Osiyo hududining eneolit davri yodgorliklari materiallari qiyyosiy jihatdan o'rganildi. Asosiy manba sifatida arxeologik qazilmalar natijalari, moddiy madaniyat buyumlari, me'moriy inshoot qoldiqlari hamda yetakchi tadqiqotchilar tomonidan e'lon qilingan ilmiy tadqiqotlar va tarixiy-arxeologik ma'lumotlar tahlil qilindi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Janubiy Turkmaniston hududi eneolit davri jamoalarining moddiy madaniyatini o'rganishda Namozgoh manzilgohi tayanch hisoblanadi. Bu yodgorlik 6 ta madaniy qatlamga ega bo'lib, manzilgohda ilk shahr alomatlari ko'zga tashlanadi. Manzilgoh madaniy qatlamlarning xronologik jihatdan sanalanishi tabiiy fanlar yutuqlariga tayanilgan holda ilmiy asoslangan. Shu madaniy qatlamlardan pastki 3tasi Janubiy Turkmaniston eneolit davri jamoalarining moddiy madaniyatiga tegishli va ular quyidagilar hisoblanadi: Namozgoh I, Namozgoh II (Anov II), Namozgoh III. Davr bo'yicha ilk, rivojlangan va so'nggi eneolitni tashkil etadi. Bu tarixiy bosqichlarning xronologik davrini va moddiy madaniyati mazmunini quyidagicha keltirish mumkin:

Namozgoh I – (mil.avv. V ming yillik o'rtalari -IV ming yillikning 1-yarmi) –ilk eneolit davri bo'lib, bu davrga ayollar statuetskasi, misdan yasalgan narsa 137 predmetlar, bir xil rang bilan bo'yalgan qo'lda yasalgan sopol idishlar, g'ujanak qilib bukilgan holda dafn etilgan yakka ko'rinishli qo'yindilar, xom g'ishtdan qilingan turar-joylar xarakterli hisoblanadi. Aholi asosan qishloqlarning shimoliy qismida yashashgan. Nomozgoh I davri uy joy qurilishida birinchi bor xom g'isht ishlatilgan. Xona devorlari somonli loy bilan

suvalgan. Uylar tor, kvadrat shaklida bo‘lib, maydoni o‘lchami 10 metr kvadratga yaqin bo‘lgan. Unga kiraverishda chap tomonda kvadrat shaklidagi g‘ishtdan qurilgan o‘choq joylashgan. Xonaning bir burchagi past devorcha bilan ajratib qo‘yilgan. Mutaxassislar fikricha, bu oilaning g‘alla “omborchasi” bo‘lishi mumkin. Nomozgoh 1 davrining bir xonali turar-joylari Geoksur vohasining Dashtlitepa yodgorligida yaxshi o‘rganilgan [2].

Nomozgoh 2 davrida qishloqlarning maydoni yanada kengaygan, shu bilan birga yirik qishloqlar atrofida mayda qishloqchalar ham qad ko‘tarilgani faktlari ham aniqlangan. Nomozgoh 2 davri uy qurilishi uslublari, tarkibiy tuzilmalari Geoksur vohasining Yolong‘ochtepa, Mo‘lalitepa kabi yodgorliklarida yaxshi o‘rganilgan. Geoksur vohasi uchun eneolit asrining bu davri “yolong‘och bosqichi” deb ham yuritiladi. Yolong‘och bosqichida urug‘ jamoalarining qishloqlari mudofaa devorlari bilan o‘rab olina boshlangan. Ba‘zan qishloqning markaziy qismigina devor bilan o‘rab olinganligi ham kuzatilgan. Nomozgoh 2 davri mudofaa devorlari ko‘p burchakli bo‘lib, har bir burchakning uzunligi 8,5 – 10 metrga teng bo‘lib, ularda aylana shaklidagi xona joylashgan. Ularning eshiklari qishloq ichiga qaratilgan. V.M.Masson bu xonalarni bo‘lajak mo‘la burj bo‘lsa kerak, deb hisoblaydi. Jamoa a‘zolari yashaydigan xonalar masalasiga kelganimizda, ular tor va maydoni 10 metr kvadratdan oshmaydi [3].

O‘rta Osiyoning shimoliy va markaziy sarhadlari ibtidoiy davr jamoalari tadqiqotlar ko‘rsatishicha, mil.avv. IV ming yillikning 2-yarmi-III ming yillikka oid yodgorliklarda dastlabki metall buyumlari uchratilgan Shunday yodgorliklar jumlasiga Quyi Zarafshon vohasida tadqiq etilgan Kaptarqumi va Katta Tuzkon 35 manzilgohlari kiradi. Ushbu yodgorliklar 1960 yillarning boshlarida A.A.Asqarov va U.I.Islomovlar tomonidan o‘rganilgan [4].

O‘rta Osiyoning Yuqori Zarafshon vohasi tog‘ va pasttekislik chegarasida tosh xom ashyosi va rudaga ishlov beruvchi qadimiy markaz bo‘lgan-Sarazm yodgorligi tadqiq etilgan. Eneolit va bronza davrlariga oid bo‘lgan mazkur yodgorlik qadimgi Panjikent shaxridan 15 km g‘arbda Zarafshon daryosining chap qirg‘og‘idashu nom bilan ataluvchi qishloq yaqinida joylashgan. Sarazm yodgorligi Tojikiston Fanlar Akademiyasi Tarix instituti ilmiy xodimi A. Isoqov tomonidan 1976 yili ochilib, keyingi yillarda uzluksiz tadqiqot ishlari amalga oshirilgan. 1983 yildan Tojikiston Fanlar Akademiyasi Tarix instituti (V.A.Ranov, A.Isaqov) va CNRS Fransiya (J.K.Garden) xalqaro arxeologik ekspeditsiyasi qazilma ishlarinidavom ettirilgan va bu tadqiqot 2010 yilgacha davom etgan (R.Bezenvali). 2011 yildan esa F. Bryune qazilma ishlarini amalga oshirgan [5]. Makonda qurilish-me‘morchilik ishlarining rivojlanishini turar-joylar va yirik umum jamoa binolari misolida bilishimiz mumkin. Tadqiqotlar ko‘rsatishicha, makonda 4 ta qurilish taraqqiyoti bosqichi bo‘lgan. Sarazm 1 qurilish bosqichi qishloqning shakllanishi jarayoni bilan bog‘liq bo‘lib, yonida ingichka o‘lchamli dahlizlari bo‘lgan 2 xonadan iborat bo‘lgan uylarda odamlar yashashgan. Ular ba‘zida devor to‘siqlar bilan o‘ralgan.

Sarazm 2 qurilish bosqichiga kelib, odamlar endi ko‘p xonali uylarda yashay boshlashgan. Hovlilari bo‘lgan va ko‘chalar orqali bir-birlari bilan bog‘langan uylardan iborat yashash massivlari paydo bo‘lgan. Aylana shakldagi o‘choq-mehroblari bo‘lgan

oilaviy ibodatxonalar shakllangan. Sig‘inish, topinish va ibodat qilish bilan bog‘liq bo‘lgan 2 ta bino qoldig‘i topib o‘rganilgan. Ularning biri markaziy qismida mehrobi bo‘lgan va devorlari qizil rang bilan bo‘yalgan bino va ikkinchisi aylana shakldagi bino bo‘lgan. Sarazm 3 qurilish bosqichiga kelib, umum jamoaviy diniy urf –odatlar, sig‘inish, topinish ishlari amalga oshiriladigan monumental imoratlar qurila boshlandi. Ko‘p xonali aholi yashaydigan uylar ko‘payadi, ularning hovlilari ham kengayadi. Uylarni bog‘lovchi ko‘chalar ham tizimlashgan.

Sarazm 2 va Sarazm 3 qurilish bosqichlari shaharsozlik jarayonining dastlabki belgilari shakllana boshlaganini yaqqol ko‘rsatadi. Ko‘p xonali uylar, hovlili turar-joylar va ularni o‘zaro bog‘lovchi ko‘chalar tizimining vujudga kelishi aholi yashash makonining rejalashtirilgan holda tashkil etilganidan dalolat beradi. Ibodatxonalar va keyinchalik umumjamoaviy monumental diniy inshootlarning paydo bo‘lishi ijtimoiy hayotda diniy markazlarning muhim o‘rin egallaganini ko‘rsatadi. Turar-joylar va diniy binolarning aniq funksional ajratilishi shahar makonining tarkibiy tuzilmasi murakkablashganidan darak beradi. Sarazm 3 bosqichida ko‘chalarning tizimlashuvi va hovlilarning kengayishi esa shaharsozlik an‘analarining yanada rivojlangan bosqichiga o‘tilganini tasdiqlaydi.

Sarazm 4 qurilish bosqichiga kelib, makonda aholi soni kamayganligi holati kuzatiladi. Yashash uylari chaylasimon ko‘rinish olib, bu haqda yer sathidan suyri shakldagi uy-joylar hamda uylardan topilgan ustunlar qoldiqlari ma‘lumot beradi. Uylar aholi vaqtinchalik yashaydigan xarakter kasb etadi. Xullas, tadqiqotlar natijasida Sarazm makoni to‘rttala rivojlanish bosqichlarida imoratlarning 4 ta tipi bo‘lganligi aniqlangan: turar-joylar, xo‘jalik ishlari bilan bog‘liq bo‘lgan imoratlar, diniy e‘tiqod ahamiyatiga ega bo‘lgan inshootlar va jamoaviy-ma‘muriy ahamiyatga molik binolar. Mutaxassislar ta’kidlashicha, Sarazm eneolit davri qurilishining xarakterli jihati bir tomondan janub o‘troq dehqonchilik jamoalari qurilish an‘analarini, ikkinchi tomondan mahalliy neolit jamoalari qurilishi an‘analarini o‘zida mujassamlashtirgani bilan izohlanadi [6].

XULOSA

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, eneolit davri O‘rta Osiyo hududida dastlabki shaharsozlik jarayonlarining shakllanishida muhim tarixiy bosqich hisoblanadi. Janubiy Turkmanistondagi Namozgoh yodgorligining quyi uch madaniy qatlami (Namozgoh I–III) misolida o‘troq dehqonchilik, turar-joy me‘morchiligi, xo‘jalik faoliyati hamda ijtimoiy munosabatlarning bosqichma-bosqich rivojlanganligi aniqlandi. Ushbu jarayonlar keyingi davrlarda shahar madaniyatining vujudga kelishi uchun asos bo‘lib xizmat qilgan.

Sarazm yodgorligining qurilish-me‘morchilik taraqqiyoti bosqichlari eneolit davrida aholi manzilgohlarining murakkablashuvi, umumjamoaviy va diniy inshootlarning paydo bo‘lishi hamda hududlararo madaniy aloqalarning kuchayganligini ko‘rsatadi. Bu holatlar ijtimoiy tabaqalanish, mehnat taqsimoti va boshqaruv elementlarining shakllana boshlaganidan dalolat beradi.

Umuman olganda, eneolit davri yodgorliklarini tizimli va qiyosiy tahlil qilish O‘rta Osiyo shaharlarining vujudga kelishi uzoq davom etgan evolyutsion jarayon ekanligini tasdiqlaydi. Namozgoh va Sarazm kabi yodgorliklar dastlabki urbanistik jarayonlarni

20-Yanvar, 2026-yil

o‘rganishda muhim ilmiy manba bo‘lib, ular mintaqaning qadimgi tarixini chuqurroq anglash imkonini beradi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Гулямов А.Г., Исламов У., Аскарлов А.А. Первобытная культура и возникновение орошаемого земледелия в низовьях Зеравшана. Ташкент, 1966.
2. Хлопин И.Н. Энеолит Юго-Западного Туркменистана. Санкт-Петербург, 1997.
3. Итина М.А. История степных племен Южного Приаралья III — начала II тыс. до н.э. Москва, 1977.
4. Гулямов А.Г., Исламов У., Аскарлов А.А. Первобытная культура и возникновение орошаемого земледелия в низовьях Зеравшана. Ташкент, 1966.
5. Ранов В.А. Изучение каменного века Средней Азии (1945-1965гг) МКГ выпуск 1. Душанбе 1968.
6. Исаков А.И. Саразм. Душанбе, 1991.

Global
Science
Publication